



**FIZIKADAN 2016-YIL TESTLARI(javoblari bilan)**  
**(Tuzuvchilar: Iskandar Tursunaliyev, Umar Rasulov)**

- Quyidagi keltirilgan javoblarning qaysi birida faqat skalyar fizik kattaliklar keltirilgan?  
 A) massa, yo'l, tezlik, vaqt      B) vaqt, yo'l, hajm, ko'chish  
 C) massa, vaqt, yo'l, tezlanish    D) massa, vaqt, zinchlik, yo'l
- Futbolchi maydon bo'ylab 40 m sharqqa, so'ngra 10 m shimalga, so'ngra 10 m sharqqa, so'ngra 47,5 m janubga harakatlangan. Futbolchi ko'chishini (m) toping.  
 A) 56,5    B) 12,5    C) 76,2    D) 62,5
- To'g'ri chiziqli qanday harakatda tezlik va tezlanish yo'nalishi mos kelmaydi?  
 A) notejis                                 B) sekinlanuvchan  
 C) tekis                                     D) tezlanuvchan
- Velosipedchi bosib o'tgan yo'lning (S) vaqtga (t) bog'lanish grafidagi rasmida keltirilgan. Velosipedchi 2,5 m/s tezlik bilan harakatlangan vaqt intervalini toping.



- A) 0 dan 1 s gacha                     B) 3 s dan 5 s gacha  
 C) 1 s dan 3 sgacha                     D) 5 s dan 7 s gacha
- Ikki jism harakati haqidagi ma'lumotlar grafikda keltirilgan. Birinchi jism 20 s harakatlangan paytda jismlar orasidagi masofa (m) topilsin.



- A) 50    B) 100    C) 250    D) 200
- Jismning harakat tenglamasi  $x = 0,5t^2 + 2t + 4$  ko'rinishiga ega. Jismning tezligi harakat boshlanganidan keyin 5 s o'tgach qanday bo'ladi (m/s)?  
 A) 7    B) 2    C) 14    D) 10
- Bir moddiy nuqtaning tezligi  $v_1 = 2 - t$ , ikkinchisining harakat tenglamasi  $x_2 = -2t$ . Ikkinci nuqta bilan bog'liq sanoq sistemasida birinchi nuqtaning to'xtaguncha bo'lgan o'rtacha tezligini toping.

  - 2
  - 3
  - 1
  - 0

- Jismning harakat tezligi  $v = -1 + 3t$  qonun bo'yicha o'zgaradi. Harakatning 1- va 3-sekundlari oraliq'idagi o'rtacha tezlikni toping (m/s).  
 A) 5    B) 10    C) 4    D) 2

- Avtomobil yo'lning yarmini  $v$  tezlikda bosib o'tdi. Qolgan vaqtning yarmida  $2v$  tezlikda harakatlanib, yo'lning oxirgi qismini esa  $3v$  tezlikda bosib o'tgan bo'lsa, avtomobilning butun yo'l davomidagi o'rtacha tezligi nimaga teng?  
 A)  $v$     B)  $\frac{9}{4}v$     C)  $\frac{10}{7}v$     D)  $\frac{8}{3}v$
- Mashina ikki svetofor orasidagi masofaning birinchi 0,1 qismida tekis tezlanuvchan harakat qilib tezligini 20 m/s ga yetkazdi. Mashina yo'lning ikkichi qismida o'zgarmas tezlik bilan va oxirgi 0,1 qismida tekis sekinlanuvchan harakat qildi. Mashinaning o'rtacha tezligini (km/h) toping.  
 A) 20    B) 60    C) 30    D) 50


- Yo'lovchining butun yo'l davomidagi o'rtacha tezligi 4 km/h ga teng. U yo'lning birinchi yarmini tekis harakat qilib 3 km/h tezlik bilan yurib o'tdi. Agar ushbu yo'lovchi yo'lning ikkinchi

yarmida ham tekis harakat qilgani ma'lum bo'lib 2 soat yurgan bo'lsa, yo'lovchining butun bosib o'tgan yo'li necha kilometrni tashkil etadi?

- |   |       |       |         |       |
|---|-------|-------|---------|-------|
| A) 12   | B) 14 | C) 24 | D) 8    |       |
| 12. Avtomobil yo'lning yarmini 60 km/soat tezlikda bosib o'tdi. Qolgan vaqtning yarmini 15 km/soat tezlikda harakatlanib, yo'lning oxirgi qismini 45 km/soat tezlikda bosib o'tgan bo'lsa, avtomobilning butun yo'l davomidagi o'rtacha tezligini necha km/soat ni tashkil etadi? | A) 40 | B) 30 | C) 43,5 | D) 37 |


- Avtomobil yo'lning yarmini  $\vartheta_1$  tezlikda bosib o'tdi. Qolgan vaqtning yarmini  $\vartheta_2$  tezlikda harakatlanib, yo'lning oxirgi qismini  $\vartheta_3$  tezlikda bosib o'tgan bo'lsa, avtomobilning butun yo'l davomidagi o'rtacha tezligini nimaga teng?  
 A)  $\frac{2\vartheta_1(\vartheta_2+\vartheta_3)}{2\vartheta_1+\vartheta_2+\vartheta_3}$   
 B)  $\frac{3\vartheta_1(\vartheta_2+\vartheta_3)}{2(\vartheta_1+\vartheta_2+\vartheta_3)}$   
 C)  $\frac{3\vartheta_1(\vartheta_2-\vartheta_3)}{2\vartheta_1+\vartheta_2-\vartheta_3}$   
 D)  $\frac{2\vartheta_1(\vartheta_2+\vartheta_3)}{\vartheta_1-\vartheta_2+\vartheta_3}$ .

- Avtomobil yo'lning yarmini  $\vartheta$  tezlikda bosib o'tdi. Qolgan vaqtning yarmini  $2\vartheta$  tezlikda harakatlanib, yo'lning oxirgi qismini esa  $3\vartheta$  tezlikda bosib o'tgan bo'lsa, avtomobilning butun yo'l davomidagi o'rtacha tezligi nimaga teng?  
 A)  $\frac{10}{7}\vartheta$     B)  $\frac{9}{4}\vartheta$     C)  $\vartheta$     D)  $\frac{8}{3}\vartheta$ .
- Ikki moddiy nuqta OX o'qi bo'ylab bir vaqtda harakatlanan boshlagan. Rasmida bu nuqtalar tezligining vaqtga bog'lanish grafigi berilgan. Vaqt  $t = 2$  c bo'lganida ularning qanday parametrlari teng?




- o'tgan yo'llari
- tezlanishlari
- koordinatalari
- tezliklari

- Jismning boshlang'ich tezligi 2 m/s, tezlanishi esa grafikda tasvirlanganidek o'zgargan. Vaqtning 4 sekund qiyamatida jism tezligi (m/s) topilsin.



- 2
- 17
- 17
- 16

- Quyida jism tezlanishning vaqtga bog'liqlik grafigi keltirilgan.  $t = 0$  s bo'lgan paytda jismning tezligi 1 m/s bo'lsa,  $t = 4$  s paytdagi jismning tezligi nimaga teng bo'ladi (m/s)?



- 11
- 13
- 19
- 10

- Avtomobil 54 km/h tezlik bilan harakatlanmoqda. Haydovchi 50 m masofada svetoforning qizil chirog'ini ko'rib qolib, tezlikni 18 km/h gacha kamaytirdi. Avtomobilning tezlanishini ( $m/s^2$ ) aniqlang?

- |      |        |       |       |
|------|--------|-------|-------|
| A) 3 | B) 1,5 | C) -2 | D) -3 |
|------|--------|-------|-------|

19. Motosiklchi  $v_0$  tezlikdan boshlab  $2 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan tekis tezlanuvchan harakatlana boshladı va  $0,1 \text{ km}$  yo'l o'tib tezligini  $25 \text{ m/s}$  ga yetkazdi.  $v_0$  ni aniqlang ( $\text{km/h}$ ).

A) 20 B) 54 C) 15 D) 40


20. Poyezd ikki stansiya orasidagi masofani  $72 \text{ km/h}$  o'rtacha tezlik bilan 20 minutda o'tdi. Tezlanish va tormozlanish uchun jami 4 minut vaqt ketdi, boshqa vaqtida esa poyezd  $v$  tezlik bilan tekis harakatlandi.  $v$  tezlikni ( $\text{km/h}$ ) aniqlang.

A) 80 B) 84 C) 72 D) 78

21. To'g'ri chiziqli tekis sekintanuvchan harakat qilayotgan jism beshinchi sekundda  $5 \text{ m}$  yo'l bosib o'tdi va to'xtadi. Harakatning ikkinchi sekundida jiam qanday yo'l ( $\text{m}$ ) bosib o'tadi?

A) 35 B) 14 C) 25 D) 75

22. Quyidagi grafikda jism tezligining ko'chishiga bog'liqlik grafigi keltirilgan. Jismning tezlanishini ( $\text{m/s}^2$ ) aniqlang.



A) 40 B) 2 C) 100 D) 4

23. Motosikl to'g'ri chiziq bo'ylab tinch holatdan harakatlana boshladı. Yo'lining birinchi kilometrini  $a_1$  tezlanish bilan, ikkinchi kilometrini  $a_2$  tezlanish bilan o'tdi. Birinchi kilometrda uning tezligi  $\Delta v_1$  ga, ikkinchi kilometrda  $\Delta v_2$  ga oshdi ( $1 > \Delta v_2 / \Delta v_1 > 0,5$ ). Tezlanishlarini taqqoslang.

A)  $a_2/a_1 < 1$  B)  $a_2/a_1 \leq 1$  C)  $a_2/a_1 > 1$  D)  $a_2/a_1 = 1$

24. Tekis tezlanuvchan harakat qilayotgan jism dastlabki ikkita  $4 \text{ s}$  dan bo'lgan ketma-ket vaqt oralig'ida  $s_1=24 \text{ m}$  va  $s_2=64 \text{ m}$  yo'llarni mos ravishda bosib o'tgan bo'lsa, jismning tezlanishini toping ( $\text{m/s}^2$ ).

A) 1 B) 3 C) 2,5 D) 5

25. Tekis tezlanuvchan harakat qilayotgan jism dastlabki ikkita  $t$  dan bo'lgan ketma-ket vaqt oralig'ida  $s_1$  va  $s_2$  yo'llarni mos ravishda bosib o'tgan bo'lsa, jismning tezalishini  $a$  nimaga teng?

$$\begin{array}{ll} A) \frac{s_2 - s_1}{t^2} & B) \frac{2(s_2 - s_1)}{t} \\ C) \frac{s_1 - s_2}{2t^2} & D) \frac{2(s_2 + s_1)}{t^2} \end{array}$$

26. Tekis tezlanuvchan harakat qilayotgan jism dastlabki ikkita  $t$  dan bo'lgan ketma-ket vaqt oralig'ida  $s_1$  va  $s_2$  yo'llarni mos ravishda bosib o'tgan bo'lsa, jismning boshlang'ich tezligi  $v_0$  nimaga teng?

$$\begin{array}{ll} A) \frac{3s_1 - s_2}{2t} & B) \frac{2s_2 - s_1}{t} \\ C) \frac{s_1 + s_2}{t} & D) \frac{2(s_2 + s_1)}{t^2} \end{array}$$

27. Jism uzunligi  $8 \text{ m}$  bo'lgan tepalikdan  $1 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan sirg'anib tushadi va gorizontal yo'lida  $4 \text{ m}$  masofa bosib o'tib, to'xtaydi. Butun harakat vaqtini (s) topilsin.

A) 6 B) 5,5 C) 2 D) 8

28. Ancha baland nuqtadan bir vaqtida ikki jism gorizontal yo'nalishda o'zaro  $60^\circ$  burchak ostida bir xil  $v_1 = v_2 = 5 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilgan bo'lsa,  $t=9 \text{ s}$  dan keyin ular orasidagi masofa necha metrga teng bo'ladi?

A) 38 B) 25 C) 40 D) 45

29. Perrondagi yo'lovchi vagon eshigiga  $25 \text{ m}$  qolganda poyezd  $0,5 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlana boshladı. Yo'lovchi qanday eng kichik o'zgarmas tezlik bilan harakatlanganda o'z vagoniga yetib oladi?

A) 5 B) 4 C) 2 D) 3

30. Sharcha ikki massiv devorlar orasida ularga tik va elastik to'qnashib harakatlamoqda. Devorlardan biri tinch turibdi, ikkinchisi  $50 \text{ sm/s}$  tezlik bilan uzoqlashmoqda. Sharcha dastlab tinch devordan  $1987 \text{ sm/s}$  tezlik bilan uzoqlashayotgan bo'lsa, uning oxirgi tezligi ( $\text{sm/s}$ ) qanday bo'ladi?

A) 37 B) 13 C) 50 D) 20

31. Sharcha ikki massiv devorlar orasida ularga tik va elastik to'qnashib harakatlamoqda. Devorlarni biri tinch turibdi, ikkinchisi  $96 \text{ sm/s}$  tezlik bilan uzoqlashmoqda. Sharcha dastlab tinch devordan  $2016 \text{ sm/s}$  tezlik bilan uzoqlashayotgan bo'lsa, uning oxirgi tezligi ( $\text{sm/s}$ ) qanday bo'ladi?

A) 96 B) 51 C) 0 D) 49

32. Yerdan ko'tarilishda samolyotning shamol yo'nalishi bo'yicha uchishi afzalroqmi yoki unga qarshimi?

A) shamol bo'lganda samolyot ucholmaydi  
B) javob samolyotning konstruksiyasiga bog'liq  
C) shamol yo'nalishi bo'yicha  
D) shamolga qarshi


33. Jismning boshlang'ich tezligi  $7 \text{ m/s}$ . Jismga tezlikka proporsional bo'lgan (proporsionallik koefitsiyenti  $3,5 \text{ kg/s}$ ) ishqalanish kuchi ta'sir etadi. Jism massasi  $3,5 \text{ kg}$  bo'lsa, jism to'xtagunicha qancha yo'l bosadi?

A) 14 B) 3,5 C) 12,25 D) 7

34. Bo'yi  $1,8 \text{ m}$  bo'lgan kuzatuvchi ko'chadagi fonar tomonga  $0,8 \text{ m/s}$  tezlik bilan yaqinlashmoqda. Qandaydir vaqt momentida uning soyasining uzunligi  $1,5 \text{ m}$ , 3 sekunddan keyin esa  $1 \text{ m}$  bo'lib qoldi. Fonar yerdan qanday balandlikda ( $\text{m}$ ) o'rnatilgan?

A) 10,4 B) 11,2 C) 12,8 D) 14,3

35. Sharcha biron balandlikdan suvg'a tushib ketdi. Uning suv ichidagi koordinatasining vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi rasmida keltirilgan.



Grafikka ko'ra:

- A) sharchaning tezlanishi vaqt o'tishi mobaynida ortib borgan  
B) birinchi  $3 \text{ s}$  da sharcha doimiy tezlik bilan harakatlangan  
C)  $3 \text{ s}$  dan keyin sharcha doimiy tezlik bilan harakatlangan  
D) sharcha hamma vaqt doimiy tezlanish bilan harakatlangan

36. Metal va ichi bo'sh plastik sharlar bir xil tashqi radiuslarga ega, ular vakuum kamerada tinch holatdan qo'yib yuborildi. Agar sharlarning har biri  $1 \text{ m}$  masofaga tushgan bo'lsa, ular bir xil ...

A) inersiyaga ega.  
B) tezlikka ega.  
C) potensial energiya ega.  
D) jism impulsiga ega.

37. Erkin tushayotgan jism qandaydir nuqtada  $20 \text{ m/s}$ , boshqa bir nuqtada esa  $40 \text{ m/s}$  tezliklarga ega bo'lsa, shu nuqtalar orasidagi masofani ( $\text{m}$ ) toping.  $g=10 \text{ m/s}^2$ .

A) 60 B) 50 C) 80 D) 40

38. Erkin tushayotgan jism qandaydir nuqtada  $20 \text{ m/s}$ , boshqa bir nuqtada esa  $40 \text{ m/s}$  tezliklarga ega bo'lsa, shu nuqtalar orasidagi masofani bosib o'tishda uning o'rtacha tezligi ( $\text{m/s}$ ) qanday bo'lgan?  $g=10 \text{ m/s}^2$ .

A) 30 B) 27 C) 25 D) 33

39. Erkin tushayotgan jism qandaydir nuqtada  $10 \text{ m/s}$  tezlikka erishdi va shu tezlikdan boshlab tushib  $75 \text{ m}$  masofani bosib

- o'tishda uning o'rtacha tezligi  $25 \text{ m/s}$  tashkil qilgan bo'lsa, jismning ushbu masofani bosib o'tish so'ngida qanday tezlikka ( $\text{m/s}$ ) erishgan?  $g=10 \text{ m/s}^2$ .
- A) 40      B) 60      C) 30      D) 50
40. Gorizontga misbatan burchak ostida otilgan jismning harakati davomida qaysi kattalik doimiy emas? Havoning qarshiligini hisobga olmang.
- A) jismning vertikal tezligi  
B) jismning vertikal tezlanishi  
C) jismning gorizontal tezlanishi  
D) jismning gorizontal tezligi
41. Jism gorizontga  $\pi/6$  burchak ostida  $30 \text{ m/s}$  tezlik bilan otildi. Trayektoriyaning eng yuqori nuqtasida jism tezlinining moduli nimaga teng ( $\text{m/s}$ )  $\sin 30^\circ = 0,5 \cos 30^\circ = 0,87$
- A) 24,2    B) 26    C) 30    D) 20,3
42. Yuqoridan tik erkin tushayotgan jismning  $(n+2)$  chi sekunddagi ko'chishi  $(n+3)$  chi sekunddagi ko'chishidan qanchaga ( $\text{m}$ ) farq qiladi?  $g=10 \text{ m/s}^2$
- A) 15 ga    B) 13 ga    C) 20 ga    D) 10 ga
43. Baland bino tarinovidan ikkinchi tomchi uzilgan paytdan 2 sekund o'tgach, uning birinchi tomchidan uzoqligi  $25 \text{ m}$  bo'lsa, tomchilar qanday vaqt intervalida ( $\text{s}$ ) uzilishini aniqlang.
- A) 1,5    B) 3    C) 2,5    D) 1
44. Kuzatuvchi vertikal tik yuqoriga otilgan jismning  $45 \text{ m}$  balandlikdan  $8 \text{ s}$  vaqt oraliqida ikki marta o'tganligini payqadi. Jism qanday tezlik bilan otilgan ( $\text{m/s}$ )?
- A) 50    B) 35    C) 45    D) 60
45. Ikkita tosh bitta vertikalda bir-biridan  $10 \text{ m}$  masofada turibdi. Biron vaqt momentida yuqoridagi tosh  $20 \text{ m/s}$  tezlik bilan tashlanadi, pastdagidagi tosh esa erkin tushirib yuborildi. Toshlar qancha vaqtadan so'ng ( $\text{s}$ ) to'qnashadilar?
- A) 0,2    B) 0,4    C) 0,5    D) 0,7
46. Jism  $v_0$  boshlang'ich tezlik bilan vertikal yuqoriga otilgan. Yarim yo'lni o'tgandan keyin uning tezligi necha foizga kamayadi?
- A) 71    B) 36    C) 29    D) 74
47.  $v_0$  boshlang'ich tezlik bilan tik yuqoriga otilgan jism maksimal balandlikka ko'tarilmasdan oldin  $t$  vaqt ichida qanday tezlanishga ega bo'lib qoladi?  $g$  – erkin tushish tezlanishi
- A)  $\frac{g}{2} - \frac{v_0}{t}$     B)  $\frac{v_0}{t} - 2g$     C) 0    D)  $-g$
48. Yer sirtidan yuqoriga jism tik otildi. Ko'tarilish balandligining  $8/9$  qismidagi tezligi boshlang'ich tezligidan necha marta kichik bo'ladi?
- A) 9    B) 3    C) 6    D) 1,5
49. Bola uzunligi  $50 \text{ cm}$  bo'lgan ipga mahkamlangan toshni vertikal tekislikda sekundiga  $3$  marta aylantirmoqda. Agar aylanayotgan toshning tezlik vektori vertikal yuqoriga yo'nalgan paytda ip uzulib ketsa, tosh necha metr maksimal balandlikka ko'tariladi?  $g = 3,14^2 \text{ m/s}^2$  deb olinsin.
- A) 4,5    B) 5    C) 9    D) 6
50. Bola uzunligi  $l$  bo'lgan ipga mahkamlangan toshni vertikal tekislikda sekundiga  $n$  marta aylantirmoqda. Agar aylanayotgan toshning tezlik vektori vertikal yuqoriga yo'nalgan paytda ip uzulib ketsa, tosh qanday maksimal balandlikka ko'tariladi?  $g = \pi^2 \text{ m/s}^2$  deb olinsin.
- A)  $2 \cdot (n \cdot l)^2$     B)  $4 \cdot n \cdot l^2$   
C)  $\frac{n^2 \cdot l^2}{g}$     D)  $\frac{n \cdot l}{2}$

51. Mahkamlangan qo'zg'almas blok orqali o'tkazilgan ipning uchlariga  $95 \text{ g}$  va  $105 \text{ g}$  massali yuklar osib qo'yilgan. Dastlab-yuqori vaziyatga og'irroq yuk ko'tarilgan, so'ngra qo'yib yuborilgan. 2 s o'tgandan keyin og'ir yuk yuqori vaziyatdan necha metr masofada bo'ladi?  $g=9,8 \text{ m/s}^2$
- A) 0,76    B) 0,84    C) 0,98    D) 1
52. Bir jism gorizontal yo'nalishda  $v_x=7,5 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilgan paytda ikkinchi jism birinchi jism otilgan joydan erkin tusha boshlagan bo'lsa,  $t=6 \text{ s}$  dan keyin ular orasidagi masofa necha metrga teng bo'ladi? Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.
- A) 35    B) 45    C) 25    D) 60
53. Vaznsizlik sharoitida Paskal va Arximed qonunlari bajariladimi?
- A) bajariladi; bajariladi    B) bajarilmaydi; bajariladi  
C) bajariladi; bajarilmaydi    D) bajarilmaydi; bajarilmaydi
54. Jism biror planetaning qutbidan ekvatoriga olib kelinganda uning og'irligi  $20\%$ ga kamaygan. Planetaning burchak tezligi  $0,001 \text{ rad/s}$  va radiusi  $3000 \text{ km}$  bo'lsa, ushbu planeta qutbida erkin tushish tezlanishini ( $\text{m/s}^2$ ) toping.
- A) 55    B) 15    C) 45    D) 30
55.  $m_1$  massali uzun aravaning bir chetida massasi  $m_2$  bo'lgan bola turibti. Agar bola aravaga nisbatan  $v$  tezlik bilan harakatlansa, arava qanday tezlik bilan harakatlanadi?
- A)  $\frac{m_1 v}{m_1 + m_2}$     B)  $\frac{m_1 v}{m_2}$     C)  $\frac{m_2 v}{m_1 + m_2}$     D)  $\frac{m_2 v}{m_1}$
56. Ovchi tinch turgan qayiqda turib uchayotgan qushga gorizontga nisbatan  $30^\circ$  burchak ostida o'q uzdi. Ovching qayiq bilan birgalikdagi massasi  $80 \text{ kg}$ . O'qning massasi  $40 \text{ g}$ , o'rtacha tezligi esa  $400 \text{ m/s}$ . Suvning qayiq harakatiga o'rtacha qarshilik kuchi  $4 \text{ N}$  bo'lsa, qayiq qancha masofaga ( $\text{m}$ ) siljidi?
- A) 0,7    B) 40    C) 0,3    D) 0,5
57.  $M = 10 \text{ kg}$  massa va  $V=500 \text{ m/s}$  tezlikka ega bo'lgan snaryad portlab ikki bo'lakka bo'lindi,  $M/4$  massa va  $2V$  tezlikka ega bo'lgan birinchi bo'lak dastlabki yo'nalishiga nisbatan teskari yo'nalishda uchib ketdi. Ikkinci bo'lak tezligi va snaryadning dastlabki tezligi orasidagi burchak kosinusni hisoblansin.
- A) 1    B) -1    C) 0,65    D) -0,65
58.  $M = 5 \text{ kg}$  massa va  $V=250 \text{ m/s}$  tezlikka ega bo'lgan snaryad portlab ikki bo'lakka bo'lindi,  $M/4$  massa va  $2V$  tezlikka ega bo'lgan birinchi bo'lak dastlabki yo'nalishiga nisbatan  $3\pi/4$  burchak ostida uchib ketdi. Ikkinci bo'lakning impulsini snaryadning dastlabki impulsidan necha marta katta?
- A) 1,04    B) 0,74    C) 0,94    D) 0,13
59.  $M = 10 \text{ kg}$  massa va  $V=500 \text{ m/s}$  tezlikka ega bo'lgan snaryad portlab ikki bo'lakka bo'lindi,  $3M/4$  massa va  $2V$  tezlikka ega bo'lgan birinchi bo'lak dastlabki yo'nalishiga nisbatan  $3\pi/4$  burchak ostida uchib ketdi. Ikkinci bo'lakning impulsini snaryadning dastlabki impulsidan necha marta katta?
- A) 2,32    B) 1,44    C) 4,51    D) 2,08
60. Tekislik sirtida  $M=4,5 \text{ kg}$  massali birinchi shayba tinch turibdi,  $m=1,5 \text{ kg}$  massali ikkinchi shayba  $v_0=4 \text{ m/s}$  tezlik bilan birinchi shaybaga markaziy urilmoqda. To'qnashuv elastik, ishqalanish yo'q. To'qnashuvdan keyin birinchi shaybaning ikkinchi shaybaga nisbatan tezligi ( $\text{m/s}$ ) topilsin.
- A) -2    B) 3    C) 2    D) 4
61. Tekislik sirtida  $M=4,5 \text{ kg}$  massali birinchi shayba  $v_1=1 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanmoqda,  $m=1,5 \text{ kg}$  massali qarama-qarshi harakatlanuvchi ikkinchi shayba  $v_0=7 \text{ m/s}$  tezlik bilan birinchi shaybaga to'qnash kelib, markaziy urilmoqda. To'qnashuv elastik, ishqalanish yo'q. To'qnashuvdan keyin shaybalarining nisbiy tezligi ( $\text{m/s}$ ) topilsin.
- A) 8    B) 6    C) 2    D) -6

62. Massasi 75 kg va 18 km/h tezlik bilan gorizontal harakatlanayotgan aravachaga vertikalga  $\pi/6$  burchak ostida, qarama-qarshi yo'nalishda 5 kg massali jism 7,2 km/h tezlik bilan kelib tushsa, arava qanday tezlik (km/h) bilan harakatlanadi?
- A) 1,47 B) 16,56 C) 20,16 D) 23,76
63. Ovchi tinch turgan qayiqda turib uchayotgan qushga gorizontga nisbatan  $30^\circ$  burchak ostida o'q uzdi. Ovching qayiq bilan birgalidagi massasi 80 kg. O'qning massasi 40 g. o'rtacha tezligi esa 400 m/s. Suvning qayiq harakatiga o'rtacha qarshilik kuchi 4 N bo'lsa, qayiq qancha masofaga (m) siljidi?
- A) 0,7 B) 0,5 C) 0,3 D) 40
64. Massasi 0,1 kg bo'lgan jism  $x = 3\sin\pi t$  va  $y = 4\cos\pi t$  qonun bo'yicha harakat qilmoqda. Uning  $t=T/2$  (T-tebranish davri) vaqt momentidagi impulsini ( $kg \cdot m/s$ ) toping.
- A)  $\pi/6$  B)  $\pi/2$  C)  $3\pi/10$  D)  $2\pi/5$
65. Potensial energiya deb nimaga aytildi?
- A) jismarning o'zaro ta'siri va harakatidan hosil bo'ladigan energiyaga  
 B) jismarning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladigan energiyaga  
 C) jismilar tinch turganda hosil bo'ladigan energiyaga  
 D) jismilar harakatlanganda hosil bo'ladigan energiyaga
66. Kinetik energiya deb nimaga aytildi?
- A) jismarning o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladigan energiyaga  
 B) jismarning o'zaro ta'siri va harakatidan hosil bo'ladigan energiyaga  
 C) jismilar harakatlanganda hosil bo'ladigan energiyaga  
 D) jismilar tinch turganda hosil bo'ladigan energiyaga
67. Aylanma harakat qilayotgan jismning kinetik energiyasi qaysi formula orqali ifodalanadi?
- A)  $W_k = \frac{mv^2}{2}$  B)  $W_k = \frac{m\omega^2}{2}$  C)  $W_k = \frac{I\omega^2}{2}$  D)  $W_k = mgh$
68. Massasi 100 kg bo'lgan kosmik kema Yer atrofida 6 km/s tezlik bilan aylanma parvoz qilmoqda. Kemaning Yerga nisbatan aylanma harakati kinetik energiyasi (GJ) hisoblansin. Yerning radiusi 6400 km,  $g=10 \text{ m/s}^2$ .
- A) 3,15 B) 1,8 C) 3,36 D) 7,2
69. Yerga tomon uchib kelayotgan meteor tezligi dastlab (u Yerdan uzoqda bo'lgan paytda) 1,6 km/s bo'lgan. U Yerga qanday tezlik (km/s) bilan tushadi? Havo qarshiligi hisobga olinmasin. Yer uchun  $R=6400 \text{ km}$ ,  $GM=400000 \text{ km}^3/\text{s}^2$ .
- A) 12,41 B) 11,29 C) 13,74 D) 9,02
70. Yerga tomon uchib kelayotgan meteor tezligi dastlab (u Yerdan uzoqda bo'lgan paytda) 9,38 Mm/h bo'lgan. U Yerga qanday tezlik (km/s) bilan tushadi? Havo qarshiligi hisobga olinmasin. Yer uchun  $R=6400 \text{ km}$ ,  $GM=400000 \text{ km}^3/\text{s}^2$ .
- A) 11,48 B) 13,39 C) 12,35 D) 9,43
71. Jism biror planetaning qutbidan ekvatoriga olib kelinganda uning og'irligi 20%ga kamaygan. Planetaning burchak tezligi 0,001 rad/s va radiusi 3000 km bo'lsa, ushbu planeta qutbida erkin tushish tezlanishini ( $\text{m/s}^2$ ) toping.
- A) 30 B) 55 C) 45 D) 15
72. Bolalar karuseli (ot o'yini) 0,5 s davomida  $90^\circ$  burchakka buriladi. Chastotani (Hz) aniqlang.
- A) 2,5 B) 0,5 C) 2 D) 1
73. Tebranayotgan mayatnikning uzunligi 3 marta kamaytirilganda uning to'liq mekanik energiyasi o'zgarmasligi uchun amplitudasini qanday o'zgartirish kerak?
- A) 9 marta kamaytirish kerak  
 B) 3 marta kamaytirish kerak  
 C)  $\sqrt{3}$  marta kamaytirish kerak  
 D)  $\sqrt{3}$  marta orttirish kerak
74. Matematik mayatnikning potensial energiyasi qanday

ifodalanadi?

$$\text{A) } \frac{mgh}{\sqrt{2}} \quad \text{B) } \frac{m}{2} A^2 \omega \quad \text{C) } \frac{mgx^2}{2l} \quad \text{D) } \frac{kx^2}{2}$$

75. Matematik mayatnik liftda joylashgan, uning tebranish davri tinch holatdagiga qaraganda 2 marta ortishi uchun lift qanday qiymatli va yo'nalishli tezlanish bilan harakatlanishi kerak?
- A)  $g/4$ , pastga B)  $3g/4$ , pastga  
 C)  $3g/4$ , yuqoriga D)  $g/4$ , yuqoriga
76. Tebranishlar davrining qanday qismida purjiniali mayatnika osilgan yuk tinch holatdan 2 sm uzoqda joylashadi?
- Tebranishlar amplitudasi 4 sm ga teng.
- A) T/4 B) T/12 C) 2T/3 D) T/3
77. Uzunliklari  $l_1$  va  $l_2$  bo'lgan matematik mayatniklarning tebranish davrlari 12 va 4 sekund. Uzunligi  $l = (l_1 - l_2)/2$  bo'lgan matematik mayatnikning tebranish davri (s) qanday?
- A) 7 B) 16 C) 9 D) 8
78. Uzunliklari  $l_1$  va  $l_2$  bo'lgan matematik mayatniklarning tebranish davrlari 12 va 4 sekund. Uzunligi  $l = (l_1 + l_2)/2$  bo'lgan matematik mayatnikning tebranish davri (s) qanday?
- A) 7 B) 16 C) 9 D) 8
79. Davrlari teng bo'lgan ikki mayatnikdan biri davrning choragicha kechikib tebranmoqda. Ular orasidagi faza farqi topilsin.
- A)  $\pi/4$  B)  $\pi/2$  C) 0 D)  $\pi/6$
80. Tebranma harakat qilayotgan nuqtaning muvozanat vaziyatidan 4 sm uzoqlikdagi tezligi 6 sm/s, 3 sm uzoqlikdagi tezligi esa 8 sm/s ga teng. Tebranishning siklik chastotasini ( $\text{s}^{-1}$ ) toping.
- A) 3 B) 4 C) 8 D) 2
81. Tebranma harakat qilayotgan nuqtaning muvozanat vaziyatidan 4 sm uzoqlikdagi tezligi 6 sm/s, 3 sm uzoqlikdagi tezligi 8 sm/s ga teng. Tebranish amplitudasini toping.
- A) 8 B) 6 C) 5 D) 4
82. Prujinaga mahkamlangan  $m$  massali yuk  $\omega$  o'zgarmas burchak tezlik bilan aylanmoqda. Agar ushbu jism harakat traktoriyasining eng yuqori nuqtasida vaznsizlikka ucharagan bo'lsa, prujinaning uzunligi nimaga teng? Erkin tushish tezlanish g.
- A)  $\frac{g}{\omega^2}$  B)  $\omega \cdot g$   
 C)  $\omega \cdot g^2$  D)  $\frac{\omega^2}{g}$
83. Prujinali mayatnikning tebranish davri  $T = 2$  s, amplitudasi  $A = 2$  sm. Mayatnik muvozanat nuqtasidan 1,73 sm chetlashgunicha vaqtida o'rtacha tezligi ( $\text{sm/s}$ ) topilsin.
- A) 8,46 B) 10,4 C) 13,8 D) 5,2
84. Prujinali mayatnikning tebranish davri  $T = 1$  s, amplitudasi  $A = 2$  sm. Mayatnik muvozanat nuqtasidan boshlab ikkinchi marta chetlashuv 1,73 sm bo'lgan davrdagi o'rtacha tezligi ( $\text{sm/s}$ ) topilsin.
- A) 8,46 B) 16,92 C) 6,81 D) 4,48
85. Gorizontal sirt 2 Hz chastotali garmonik tebranmoqda. Sirt ustida yuk joylashgan bo'lib, uning uchun ishqalanish koefitsiyenti 0,16. Yuk sirt ustida sirpana boshlasa, sirtning tebranish amplitudasi ( $\text{sm}$ ) qanday bo'лади?
- A) 4,48 B) 8 C) 1 D) 2
86. Uzunligi  $\pi/4$  m bo'lgan chana qordan asfaltga chiqib to'xtadi. Asfalt ustida ishqalanish koefitsiyenti  $\mu = \pi/10$ , qorda ishqalanish yo'q deb hisoblash mumkin. Tormozlanish vaqtini (s) hisoblang. Chana massasini uzunligi bo'yicha tekis taqsimlangan deb hisoblash mumkin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .
- A)  $\pi^2$  B)  $\pi/10$  C)  $\pi/4$  D)  $\pi^2/40$
87. Garmonik tebranayotgan nuqtaning maksimal tezligi  $v_m$ , maksimal tezlanishi  $a_m$ . Tebranish davri aniqlansin.
- A)  $\frac{4\pi v_m}{a_m}$  B)  $\frac{\pi v_m}{a_m}$  C)  $\frac{2\pi v_m}{a_m}$  D)  $\frac{2\pi a_m}{v_m}$


88. Moddiy nuqta harakati  $x = 10 \sin 5t$  sm,  $y = 100 \cos 5t$  mm tasvirlanadi. Nuqtaning eng katta tezligi aniqlansin.  
A)  $70,7 \text{ sm/s}$  B)  $50 \text{ sm/s}$  C)  $70,7 \text{ m/s}$  D)  $50 \text{ m/s}$
89. U – simon shaklidagi doimiy kesimli idishda suyuqlik qu yilgan, suyuqlikning to'liq uzunligi  $19,6 \text{ sm}$ . Suyuqlikning tebranish davri (s) topilsin.  
A)  $1,96\pi$  B)  $0,2\pi$  C)  $0,1\pi$  D)  $\pi$
90. Usti ochiq g'ildirakli aravacha yomg'ir tomchilab turgan gorizontekis sirtda ishqalanishsiz harakat qilmoqda. Agar yomg'ir tomchilari aravachada to'planayotgan bo'lsa, aravachaning tezligi qanday o'zgaradi?
- 
- A) mechanik energiyaning saqlanish qonuniga binoan kamayadi  
B) mechanik energiyaning saqlanish qonuniga binoan ortadi  
C) impulsning saqlanish qonuniga binoan kamayadi  
D) impulsning saqlanish qonuniga binoan ortadi
91. Kosmik kema massasi  $1220 \text{ kg}$  bo'lib tinch holatda turibdi. Massasi  $80 \text{ kg}$  kosmonavti yengil qutqaruv zanjiri yordamida kosmik kemaga torta boshlashdi. Agar kosmonavt va kosmik kema orasidagi boshlang'ich masofa  $50 \text{ m}$  ga teng bo'lsa, kosmik kema uchrashguncha qanday masofani ( $m$ ) bosib o'tadi?  
A) 3 B) 47 C) 25 D) 50
92. Raketa gorizontal yo'nalishda  $g$  tezlanish bilan harakatlanmoqda. Undagi  $m$  massali jism vazni qanday?  $g$  - erkin tushish tezlanishi  
A)  $mg/\sqrt{2}$  B)  $mg\sqrt{8}$  C)  $mg\sqrt{2}$  D)  $mg\sqrt{3}$
93. 4 kg massali tosh gorizontga nisbatan  $45^\circ$  burchak ostida  $3 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilgan. Tosh eng baland nuqtaga ko'tarilgan vaqtidagi vazni ( $N$ ) qanday?  $g=10 \text{ m/s}^2$   
A)  $20\sqrt{3}$  B) 40 C) 0 D)  $40/\sqrt{2}$
94. Yuk ipga osilgan bo'lib, ip blokka o'ralmoqda. Blok besh marta ayanganida uch metr ip o'ralsan bo'lsa, blokning radiusi ( $\text{sm}$ ) qanday?  $\pi=3$ .  
A) 5 B) 2,5 C) 10 D) 0,1
95. Gorizontal sirdagi ikki shar bir-biriga tegib turibdi. Agar ular xuddi shunday o'lchamli, lekin zichligi sakkiz marta ortiq sharlar bilan almashtirilsa, tortishuv kuchi qanday o'zgaradi?  
A) 64 marta ortadi B) 8 marta kamayadi  
C) 4 marta kamayadi D) 4 marta ortadi
96. Zichligi  $500 \text{ kg/m}^3$  bo'lgan sharcha uzun ip bilan benzinli sisterna tubiga bog'langan. Sisterna gorizontal yo'nalishda tezlanish bilan yursa, sharcha sisternaga nisbatan qanday yo'nalishda harakatlanadi?  
A) harakatga tik yo'nalishda  
B) harakatga teskari yo'nalishda C) tinch qoladi  
D) harakat yo'nalishida
97. Tinch ko'l suvida turgan qayiqdan og'ir langar tashlandi, natijada to'lqinlar hosil bo'ldi. Qig'oqdagi kuzatuvchi to'lqinlar qirg'oqqa  $50 \text{ s}$  da yetganini, qo'shni to'lqin do'ngliklari orasidagi masofa  $0,5 \text{ m}$ , va  $10 \text{ s}$  davomida qirg'oqqa  $20$  to'lqin yetib kelganini qayd etdi. Qayiq qirg'oqdan qanday masofada ( $m$ ) bo'lgan?  
A) 20 B) 100 C) 50 D) 10

98. Po'latdan tarqalayotgan tovush to'lqinlarining fazasi  $\pi/2$  ga farq qiladigan eng yaqin nuqtalar orasidagi masofa  $1,54 \text{ m}$  ni tashkil etsa, tovush to'lqinlarning chastotasini (Hz) aniqlang. Po'latda tovushning tarqalish tezligi  $5000 \text{ m/s}$ .  
A) 812 B) 844 C) 920 D) 784
99. Suvda qanday mexanik to'lqinlar tarqaladi?  
A) mexanik to'lqinlar tarqalmaydi  
B) bo'ylama va ko'ndalang C) ko'ndalang D) bo'ylama
100. Quyidagi rasmida soat strelkasiga qarshi yo'nalishda aylanayotgan  $2M$  massali doiraviy platforma ustida turgan  $M$  massali bolaning tepadan ko'rinishi tasvirlangan. Agar bola platforma markazidan uzoqlashsa, platforma hamda bola bog'langan tizimning burchak tezligi va inersiya momenti qanday o'zgaradi?
- 
- A) burchak tezlik o'zgarmaydi, inersiya momenti esa kamayadi  
B) burchak tezlik ortib, inersiya momenti kamayadi  
C) burchak tezlik ham inersiya momenti ham o'zgarmaydi  
D) burchak tezlik kamayib, inersiya momenti ortadi
101. Bir nuqtaga ta'sir etuvchi  $21$  va  $36 \text{ N}$  kuchlarning teng ta'sir etuvchisi ... bo'lishi mumkin.  
A)  $62,3 \text{ N}$  va  $60,5 \text{ N}$  B)  $14,9 \text{ N}$  va  $57,1 \text{ N}$   
C)  $12 \text{ N}$  va  $13 \text{ N}$  D)  $21 \text{ N}$  va  $36 \text{ N}$
102. Yo'nalishlari orasidagi  $\alpha$  burchak  $\pi/3$  bo'lgan  $40 \text{ N}$  va  $30 \text{ N}$  kuchlar geometrik usulda qo'shilgandagi natijalovchi kuchni ( $N$ ) toping.  
A)  $60,8$  B)  $60$  C)  $70$  D)  $64,8$
103.  $2 \text{ kg}$  massali moddiy nuqta gorizontal  $F_1 = 6 \text{ N}$  kuch va yo'nalishi mos keluvchi  $F_2 = 3 \text{ N}$  va  $F_3 = 5 \text{ N}$  vertikal kuchlar ta'sirida qanday tezlanish ( $\text{m/s}^2$ ) bilan harakatlanadi?  
A) 4 B) 5 C) 3 D) 7
104.  $F_1$  kuch ta'sirida jism  $4 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlanadi. Teskari yo'nalishdagi  $F_2$  kuch ta'sirida jism tezlanishi  $3 \text{ m/s}^2$  ga teng. Agar ikkala kuch bir vaqtida ta'sir etsa, jismning tezlanishi ( $\text{m/s}^2$ ) qanday bo'ladi?  
A) 5 B) 7 C) 0 D) 1
105. Quyidagi chizmada keltirilgan prujinalar tizimining umumiy bikrligi nimaga teng? Har bir prujinaning bikrligi  $k$  dan iborat deb oling.
- 
- A)  $\frac{m}{n} k$   
B)  $k^{\frac{2n}{m}}$   
C)  $(\frac{n}{m+1})^{2(n+m)} \cdot kD$  (n + m) $^2 \cdot k$
106. Prujinalar quyidagi chizmada keltirilgandek ulagan. Agar  $m=n$  shart bajarilsa, ushbu prujinalartizimining umumiy bikrligi nimaga teng? Har bir prujinaning bikrligi  $k$  dan iborat deb oling.
- 
- A)  $k$   
B)  $k^{\frac{2n}{m}}$   
C)  $(\frac{n}{m+1})^2 \cdot k$   
D)  $(n + m)^2 \cdot k$
107. Dinamomert purjinasiga massasi  $0,1 \text{ kg}$  bo'lgan yuk osilgandan so'ng, prujina  $2,5 \text{ sm}$  ga uzaydi. Purjinaga yana massasi  $0,1 \text{ kg}$

bo'lgan 2 ta yuk osilsa, prujinaning uzayishi (sm) qanday bo'ladi?

- A) 75    B) 5    C) 10    D) 7,5


108. Maktab o'quvchisi prujinaning elastiklik kuchini uning uzunligiga bog'liqligini o'rganish maqsadida tajriba o'tkazdi. Mazkur bog'lanish  $F(x) = k|x - x_0|$  ko'rinishga ega, bu yerda  $x_0$  – deformasiyalanmagan holdagi prujinaning uzunligi. Tajriba natijalari rasmida ko'rsatilgan grafik shaklda berilgan bo'lsa, quyida keltirilgan tasdiqlarning qaysilarini to'g'ri?



- 1) 5 N kuch ta'sirida prujina uzilib ketadi;  
 2) Prujinaning bikrili  $\frac{5}{6} \frac{\text{N}}{\text{cm}}$  ga teng;  
 3) Deformasiyalanmagan holda prujinaning uzunligi 6 cm;  
 4) Prujinaning bikrili  $1,2 \frac{\text{N}}{\text{cm}}$  ga teng;  
 5) Prujina 3 cm ga cho'zilganda, unda  $2,5 \text{ N}$  elastiklik kuchi hosil bo'ladi.

A) 1, 2, 3.   B) 2, 3, 5.   C) 1, 4, 5.   D) 3, 4, 5.

109. A brusok vaznsiz ipning bir uchiga osilgan, ipning boshqa uchi esa vaznsiz ko'chmas blok orqali o'tib, stolning silliq sirtida yotgan B brusokka ulangan (rasmga qarang). O'quvchi B brusokning massasini aniqlash maqsadida ushbu brusoklar tizimini harakatga keltirdi va A brusok pol sirtiga yetgumicha bo'lgan vaqtini yozib oldi. O'quvchi B brusokning massasini aniqlash uchun yana qaysi kattalikni o'lchashi lozim?




- A) A brusokning massasini, uning polga yetguncha bosib o'tgan masofasini va ko'chmas blokning radiusini  
 B) A brusokning massasini   C) A brusokning polga yetguncha bosib o'tgan masofasini, uning massasini  
 D) A brusokning polga yetguncha bosib o'tgan masofasini

110. Parashutchi ochilgan parashutda doimiy tezlik bilan tushmoqda. Parashutchi vaznsizlik holatidami?


- A) ha, chunki Yerning tortish kuchi va havoning ishqalanish kuchi o'zaro muvozanatlashgan  
 B) ha, chunki parashutchining vazni nolga teng  
 C) yo'q, chunki Yerning tortish kuchi unga ta'sir etuvchi yagona kuch emas  
 D) ha, chunki Yerning tortish kuchi havoning ishqalanish kuchidan kichik

111. Katerga ta'sir etuvchi kuchlarning teng ta'sir etuvchisi quyidagi grafikda tasvirlangan. Vaqtning qanday oraliqlarida (s) kater tekis harakatlangan?



- A) 2-4    B) 2-4 va 6-8    C) 0-2 va 4-6    D) 6-8

112. Rasmda 2 kg massali jism tezligining o'zgarishi grafigi berilgan. Jismga ta'sir etayotgan kuchning  $F(x)$  proeksiyasini (N) toping.



- A) 4    B) 6    C) 10    D) 5

113. 1 kg massali jism doimiy kuch ta'sirida harakatlanmoqda, bunda uning tezligi jadvalga muvofiq o'zgarmoqda. Jismga ta'sir qilayotgan kuch (N) modulining qiymati topilsin.

$t, \text{ c}$	0	1	2	3	4
$v, \text{ m/c}$	0	2	4	6	8

- A) 1    B) 4    C) 3    D) 2

114. Massasi 50 kg bo'lgan havo shari yuqoriga  $5 \text{ m/s}$  tezlik bilan ko'tarilmoqda va  $3 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan tezligi kamaymoqda. Uning vazni qanday?  $g=10 \text{ m/s}^2$   
 A) 350    B) 500    C) 0    D) 650

115. m massali shar havoda muallaq turibdi. Uning vazni qanday?  
 A)  $mg$     B) 0    C)  $mg/2$     D)  $mg/3$

116. Toshni  $a_1$  tezlanish bilan ko'tarilsa, uning vazni uch marta ortadi, agar  $a_2$  tezlanish bilan tushirilsa, vazni uch marta kamayadi.  $\frac{a_2}{a_1}$  nisbat topilsin.

- A) 1    B) 1/2    C) 3    D) 1/3

117. 6 kg massali jism og'ish burchagi  $30^\circ$  bo'lgan qiyalik bo'ylab ishqalanishsiz tushmoqda. Uning vaznnini (N) aniqlang.  $g=10 \text{ m/s}^2$

- A)  $12/\sqrt{3}$     B) 30    C)  $30\sqrt{3}$     D) 20

118. 4 kg massali tosh gorizontga nisbatan  $45^\circ$  burchak ostida  $3 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilgan. Tosh eng baland nuqtaga ko'tarilgan vaqtidagi vazni (N) qanday?  $g=10 \text{ m/s}^2$

- A)  $\frac{40}{\sqrt{2}}$     B)  $20\sqrt{3}$     C) 40    D) 0

119. Zichligi  $250 \text{ kg/m}^3$  va massasi 1 kg bo'lgan shar uzun ip bilan benzinli sisterna tubiga bog'langan va to'liq benzin ichida suzib yuribdi. Sisterna gorizontal yo'nalishda  $2,25 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan yursa; shar muvozanatli holatga kelgandan-so'ng ip tarangligi (N) topilsin. Benzin zichligi  $800 \text{ kg/m}^3$ ,  $g=10 \text{ m/s}^2$ .

- A) 10,25    B) 22,55    C) 12,51    D) 3,14

120. Massasi 4000 kg bo'lgan yuksiz avtomashina  $0,3 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan qo'zg'aladi. Yuk ortilgan holda avtomobil xuddi avvalgidek tortish kuchi ta'sirida harakatga kelib 5 sekunddan so'ng  $1 \text{ m/s}$  tezlikka erishadi. Ortilgan yukning massasini (kg) toping.

- A)  $10^{-3}$     B)  $3 \cdot 10^3$     C)  $2 \cdot 10^3$     D)  $2 \cdot 10^2$

121. Jism ikki ipga osib qo'yilgan va muvozanat holatida turibdi. Iqlar orasidagi burchak  $90^\circ$ , ularning tarangligi 3 H va 4 H. Jismning og'irlik kuchi (N) nimaga teng?

- A) 5    B) 7    C) 25    D) 1

122. Agar  $30^\circ$  burchakka og'dirilgan mayatnikni harakatlantiruvchi kuch 1 N ga teng bo'lsa, mayatnikning massasini (g) aniqlang.  $g=10 \text{ m/s}^2$

- A) 220    B) 226    C) 150    D) 200

123. 1 kg massali jismni qiya tekislik bo'ylab yuqoriga tekislik uchun 6 N kuch zarur. Jism erkin qo'yib yuborilsa bu qiya tekislik bo'ylab  $1,6 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan sirg'anadi. Tekislik qiyaligi sinor ni aniqlang.  $g=10 \text{ m/s}^2$

- A) 0,42    B) 0,13    C) 0,38    D) 0,16

124.  $M$  massali jism rasmida

ko'rsatilgandek qiya tekislik bo'ylab o'zgarmas tezlik bilan sirpanib tushmoqda. Agar qiyalik burchagi  $\theta$  bo'lsa, ushbu  $M$  massali jismning og'irligi nimaga teng?  $g = 10 \text{ m/s}^2$

- A)  $Mgsin\theta$   
B)  $Mg$   
C)  $Mgcos\theta$


125.  $M$  massali jism rasmida

ko'rsatilgandek qiya tekislik bo'ylab o'zgarmas tezlik bilan sirpanib tushmoqda. Agar qiyalik burchagi  $\theta$  bo'lsa, ushbu  $M$  massali jismga ta'sir qilayotgan tayanchning reaksiya kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$

- A)  $Mgsin\theta$   
B)  $Mg$   
C)  $Mgcos\theta$   
D)  $Mgtg\theta$

126.  $M$  massali jism rasmida ko'rsatilgandek  $F$  kuch ta'sirida

gorizontal tekislik bo'ylab o'zgarmas tezlik bilan harakatlanmoqda. Agar  $F$  kuch gorizontal tekislik bilan  $\alpha$  burchak hosil qilsa,  $M$  massali jismning og'irligi nimaga teng?  $g = 10 \text{ m/s}^2$



- A)  $Mg - Fsin\alpha$   
B)  $Mg$   
C)  $Mg - F cos\alpha$   
D)  $Mgtg\alpha$


127.  $M$  massali jism rasmida ko'rsatilgandek (yuqoridagi masaladagi rasm)  $F$  kuch ta'sirida gorizontal tekislik bo'ylab o'zgarmas tezlik bilan harakatlanmoqda. Agar  $F$  kuch gorizontal tekislik bilan  $\alpha$  burchak hosil qilsa, tayanchning shu  $M$  massali jismga ta'sir qiladigan reaksiya kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$

- A)  $Mg - Fsin\alpha$   
B)  $Mg$   
C)  $Mg - F cos\alpha$   
D)  $Mgtg\alpha$


128.  $m_1 = 14 \text{ kg}$  va  $m_2 = 26 \text{ kg}$

massali jismlar qo'zg'almas vaznsiz blok orqali rasmdagidek ipga bog'langan. Tizimning tezlanishini ( $\text{m/s}^2$ ) aniqlang. Ishqalanishlarni hisobga olmang.

- A) 0,1 B) 0,75 C) 1 D) 2




- B)  $Mg$   
C)  $Mgtg\theta$



- B)  $Mg$   
C)  $Mgcos\theta$   
D)  $Mgtg\theta$

129.  $m_1=1 \text{ kg}$  va  $m_2=3 \text{ kg}$  masali jismlar qo'zg'almas vaznsiz blok orqali rasmdagidek ipga bog'langan. Tizimning tezlanishini ( $\text{m/s}^2$ ) aniqlang. Ishqalanishlarni hisobga olmang.



- A) 3,75 B) 7,5 C) 1,25 D) 2,5

130. Massasi  $5 \text{ kg}$  bo'lgan brusokka gorizontga nisbatan  $\alpha=\pi/6$

burchak ostida pastga yo'nalgan  $10 \text{ N}$  kuch ta'sir qilmoqda. Ishqalanish koefitsiyenti qanchaga teng bo'lganida brusok tekis harakat qiladi?

- A) 0,07 B) 0,8 C) 0,24 D) 0,16

131. Gorizontal sirtida  $4 \text{ kg}$  massali jism turibdi. U  $1 \text{ m/s}^2$  tezlanish olishi uchun qancha kuch bilan ta'sir etish kerak (N)? Sirt bilan jism orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,2 ga teng.

- A) 12 B) 160 C) 16 D) 8

132. Massasi  $0,02 \text{ kg}$  bo'lgan magnit temir devorga  $18 \text{ N}$  kuch bilan tortilib tinch turgan bo'lsa, magnitga ta'sir etuvchi ishqalanish kuchi (N) qancha? Magnit bilan temir orasidagi ishqalanish koefitsiyenti  $0,2$ .  $g=10 \text{ m/s}^2$ .

- A) 2 B) 0,2 C) 3,6 D) 1,6

133. Gorizontal stol sirtida turgan  $12 \text{ kg}$  massali g'o'lani sirt bo'ylab  $0,5 \text{ m}$  masofaga surish uchun  $12 \text{ J}$  ishl bajarildi. Brusok bilan stol sirti orasidagi ishqalanish koefitsiyentini toping.

- A) 0,4 B) 0,3 C) 0,1 D) 0,2

134. Zichligi  $250 \text{ kg/m}^3$  va massasi  $1 \text{ kg}$  bo'lgan shar uzun ip bilan benzinli sisterna tubiga bog'langan va to'liq benzин ichida suzib yuribdi. Sisterna gorizontal yo'nalishda  $2,25 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan yursa, shar muvozanatlari holatga kelgandan so'ng ip tarangligi (N) topilsin. Benzин zichligi  $800 \text{ kg/m}^3$ ,  $g=10 \text{ m/s}^2$ .

- A) 3,14 B) 12,51 C) 10,25 D) 22,55


135. Gorizontal sirtda ip bilan ketma-ket bog'langan har birining massasi  $1 \text{ kg}$  dan bo'lgan oltita brusok yotibdi. Brusoklar bilan sirt orasidagi ishqalanish koefitsiyenti  $0,2$ . Birinchi brusok  $9 \text{ N}$  kuch bilan gorizontal tortilsa, to'rtinchisi va beshinchisi brusoklar orasidagi ip tarangligi (N) topilsin.

- A) 0 B) 3 C) 4,5 D) 1

136. Og'ish burchagi  $30^\circ$  bo'lgan tekislikda massasi  $5 \text{ kg}$  bo'lgan jism turibdi. Bu sirt yuqoriga  $2 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan ko'tarilayotgan liftda joylashgan. Jismga ta'sir etuvchi ishqalanish kuchi (N) topilsin.  $g=10 \text{ m/s}^2$ .

- A) aniqlab bo'lmaydi B) 20 C) 25 D) 30

137.  $m$  massali brusokka  $F_1$  va  $F_2$  kuchlar rasmida ko'rsatilgandek ta'sir qilmoqda. Agar brusok ushbu gorizontal sirtda o'zgarmas tezlik bilan harakat qilayotgan bo'lsa, sirt hamda brusok orasidagi ishqalanish kuchi nimaga teng? Brusok hamda sirt orasidagi ishqalanish koefitsiyenti  $\mu$  ga teng deb oling.




- A)  $F_1 \cos \beta + F_2 \cos \alpha$   
B)  $F_1 \cos \beta + F_2 \sin \alpha$   
C)  $\mu F_1 \sin \beta + F_2 \sin \alpha$   
D)  $\mu(F_1 \sin \beta + F_2 \sin \alpha)$

138.  $m=3 \text{ kg}$  massali brusokka  $F_1=20 \text{ N}$  va  $F_2=30 \text{ N}$  kuchlar rasmida ko'rsatilgandek ta'sir qilmoqda(rasm yuqoridagi savolda). Agar brusok va sirt orasidagi ishqalanish koefitsiyenti  $0,1$  bo'lsa, shu sirt hamda brusok orasidagi ishqalanish kuchini (N) aniqlang,  $g=10 \text{ m/s}^2$ . ( $\alpha = 45^\circ$ ,  $\beta = 45^\circ$ )


- A) 6,4 B) 3,8 C) 4,1 D) 2,4

139.  $m$  massali brusokka  $F_1$  va  $F_2$  kuchlar rasmida ko'rsatilgandek ta'sir qilmoqda. Agar brusok mutloq silliq sirt ustida joylashgan bo'lsa, shu sirtning brusokka ko'rsatadigan reaksiya kuchi nimaga teng?




- A)  $N = F_1 \sin \beta - mg + F_2 \sin \alpha$   
B)  $N = F_1 \sin \beta + mg - F_2 \cos \alpha$   
C)  $N = F_1 \sin \beta + mg - F_2 \sin \alpha$   
D)  $N = F_1 \sin \beta + mg + F_2 \sin \alpha$

140.  $m$  massali brusokka  $F_1$  va  $F_2$  kuchlar rasmida ko'rsatilgandek ta'sir qilmoqda. Agar brusok mutloq silliq sirt ustida joylashgan bo'lsa, shu sirtning brusokka ko'satadigan reaksiya kuchi (N) aniqlang.  $g=10 \text{ m/s}^2$  deb oling.



- A) 24,5    B) 64    C) 41,5    D) 38,5

141.  $m$  massali brusokka  $F_1$  va  $F_2$  kuchlar rasmida ko'rsatilgandek ta'sir qilmoqda. Agar brusok va gorizontall sirt orasidagi ishqalanish koefitsiyenti  $\mu$  bo'lsa, jismning tezlanishini toping.



- A)  $\frac{1}{m}(F_1(\cos \beta + \mu \sin \beta) + F_2(\cos \alpha - \mu \sin \alpha)) - \mu g$   
 B)  $\frac{1}{m}(F_1(\cos \beta - \mu \sin \beta) - F_2(\cos \alpha + \mu \sin \alpha)) - \mu g$   
 C)  $\frac{1}{m}(F_1(\cos \beta + \mu \sin \beta) - F_2(\cos \alpha - \mu \sin \alpha)) - \mu g$   
 D)  $\frac{1}{m}(F_1(\cos \beta - \mu \sin \beta) + F_2(\cos \alpha + \mu \sin \alpha)) - \mu g$

142.  $m$  massali jism gorizontall sirtda joylashgan bo'lib, unga jism og'irligining yarmiga teng bo'lgan  $F$  kuch ta'sir etadi. Bu kuch gorizontall nisbatan  $\alpha$  burchak tashkil etib, birinchi holda pastga, ikkinchi holda yuqoriga yo'nalgan holda tekis harakatlangan. Ikkala holdagi ishqalanish kuchlarining ayirmasi aniqlansin. Ishqalanish koefitsiyenti  $\mu$ .

- A)  $\mu mg \sin \alpha$     B)  $0,5 \mu mg \sin \alpha$     C)  $\mu mg \cos \alpha$   
 D)  $2 \mu mg \sin \alpha$

143. 900 N vaznga ega bo'lgan og'ir qutini ikki ishchi tekis surmoqda. Biri 300 N kuch bilan orqadan itarmoqda, kuch yer sirtiga nisbatan  $30^\circ$  burchak bilan pastga qaragan. Ikkinchisi qutini huddi shunday kuch bilan gorizontall tortmoqda. Ishchilar 20 m yo'lida qancha ish (kJ) bajaradi.

- A) 11,2    B) 12,0    C) 18,0    D) 12,2

144. Massasi 0,1 kg bo'lgan absolut elastik jism vertikalga nisbatan  $\pi/3$  burchak ostida 10 m/s tezlik bilan gorizontall sirt tomon harakatlanmoqda. Agar elastik urilish 0,02 s davom etgan bo'lsa, sirtga urilish kuchini (N) toping.

- A) 50    B) 2,5    C) 25    D) 5

145. Massasi 20 g va 400 m/s tezlikka ega bo'lgan o'q diametri 20 sm bulgan yog'och ustunini teshib o'tdi. Agar o'qning tezligi chiqishda 100 m/s gacha kamaygan bo'lsa, yog'och ustun ichidagi o'rtacha qarshilik kuchini (N) toping.

- A) 4800    B) 8200    C) 7500    D) 5300

